

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

**№ 8 (3) - 2023**

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

---

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ  
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

---

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES  
AND SOCIAL SCIENCES



**ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ**

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ELECTRONIC JOURNAL



ISSN: 2181-1342 (Online)

Сайт: <https://scienceproblems.uz>

DOI: 10.47390/SCP1342V3I8Y2023

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 8 (3)-2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшилик Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### *12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

#### *13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

#### *19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### *22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодида Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

#### *23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

## **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

### **Crossref DOI:**

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

### **Google Scholar**

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.  
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

### **Таҳририят манзили:**

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
Телеграм канал: [https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

- Воҳидова Комила Абдуллозизовна*  
“ЭЛ БАЙРОҒИ” ГАЗЕТАСИ ҲАҚИДА ..... 11-17
- Сулайманов Саламат Арепбаевич*  
ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН МУХТОР ВИЛОЯТИДА ҚУРУҚЛИК ВА СУВ ТРАНСПОРТИ: МУАММО  
ВА ЕЧИМЛАР (1924-1932 ЙЙ) ..... 18-24
- Раунов Холмамат*  
ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДИДА УРАН КОНЛАРИНИ ЎЗЛАШТИРИШ ТАРИХИ ..... 25-32
- Мажидов Анвар Сиражович*  
ИМПЕРИЯ МУСТАМЛАКАЧИЛИК СИЁСАТИНИНГ ТУРКИСТОН ТУБ ХАЛҚЛАРИНИНГ  
ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ВА ФУҚАРОЛИК АҲВОЛИГА ТАЪСИРИ (СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ  
МИСОЛИДА) ..... 33-40
- Begatova Nasiba Xolmurzayevna*  
FERMER XO‘JALIKLARI VA KLASSTER TIZIMI UCHUN O‘RTA MA‘LUMOTLI MUTAXASSISLARNI  
TAYYORLASH TIZIMIDAGI YUTUQLAR VA MUAMMOLAR (SURXONDARYO VILOYATI  
MISOLIDA) ..... 41-48
- Алланазаров Мурот Мирзаевич*  
БУХОРО ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИ НОЗИРЛАР ШЎРОСИ ВА МИЛЛИЙ РАҲБАР  
ХОДИМЛАР ФАОЛИЯТИ ХУСУСИДА ..... 49-54
- Ismoilova Feruza Ibragimovna*  
URUSH YILLARIDA XOTIN-QIZLARNING ILM-FAN VA MADANIYAT SOHALARIDAGI  
XIZMATLARI ..... 55-59
- Tursunov Xurshid Nasriddinovich*  
O‘ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA TARIXCHI KADRLAR TAYYORLASH SOHASI  
HUQUQIY ASOSLARINING YARATILISHI ..... 60-64

### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

- Yuldosheva Gulnoza Abdinabiyevna*  
THE ROLE OF THE DIGITAL ECONOMY IN MODELING THE FINANCIAL ACTIVITIES OF  
ENTERPRISES ..... 65-70
- Oromidinov Muzaffar Pardabayevich*  
DIRECTIONS FOR IMPROVING INTERNAL AUDIT IN COMMERCIAL BANKS ..... 71-75
- Худайназарова Дилором Хайруллаевна*  
ТЎҒИМАЧИЛИК САНОАТИ КОРХОНАЛАРИНИНГ ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ ДОИРАСИДАГИ  
РИСКЛАРИНИ СТРАТЕГИК ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШ ИСТИҚБОЛЛАРИ ..... 76-84

|   |         |
|---|---------|
| <i>To'lov Ulug'bek Toshmamatovich, Jo'rayev Sirojiddin Muxiddin o'g'li</i><br>KO'CHMAS MULKNI SOLIQQA TORTISHDA XORIJIY DAVLATLARDA AMALGA OSHIRILGAN<br>ISLOHOTLAR .....           | 85-92   |
| <i>Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich</i><br>MINTAQADA XIZMAT TURLARIDAN SAMARALI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI .....   | 93-98   |
| <i>Turobov Sherzod Alisherovich</i><br>O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA UY XO'JALIKLARI TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA<br>DAVLAT SIYOSATI .....   | 99-105  |
| <i>Шамсиев Нодир Муратович</i><br>МЕТОДЫ ОЦЕНКИ ПОКАЗАТЕЛЕЙ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ ПРИ АНАЛИЗЕ<br>РЕЙТИНГОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ИХ КАЧЕСТВЕННОЕ ОПИСАНИЕ .....                            | 106-110 |
| <i>Zaripova Moxira Zarip qizi</i><br>AGRAR SOHAGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH<br>IMKONIYATLARI .....   | 111-114 |
| <i>Узайдуллаев Шерзод Шукуруллаевич</i><br>ЎЗБЕКИСТОНДА ИННОВАЦИОН ИНФРАТУЗИЛМАНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ<br>ОМИЛЛАРИ .....   | 115-121 |
| <i>Atabayeva Karomat Rajabovna, Rajabova Maftuna Farhod qizi</i><br>O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINING RIVOJLANISHI VA TAHLILI .....   | 122-127 |
| <i>Жумаева Мухлиса Абдуғани қизи</i><br>МАМЛАКАТДА АЁЛЛАР ТАДБИРКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМИНИ<br>ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....  | 128-137 |
| <i>Камалов Акмал Сайдакбарович, Саматов Ғаффор Аллақулович</i><br>ГЕОИҚТИСОДИЙ МУНОСАБАТЛАР ШАРОИТИДА ТРАНСПОРТ ЛОЙИХАЛАРИНИ АМАЛГА<br>ОШИРИШГА БЎЛГАН ЁНДАШУВЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ ..... | 138-150 |
| <i>Мамадиёров Олимжон Умарович</i><br>ОЗИҚ-ОВҚАТ ХАВФСИЗЛИГИ ТАЪМИНЛАШ НАЗАРИЯЛАРИ ЭВОЛЮЦИЯСИ.....  | 151-158 |
| <i>Раббимов Жахонгир Эшбоевич</i><br>ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА ОПЕРАЦИОН РИСКЛАРНИНГ МОҲИЯТИ, УЛАРНИНГ ЮЗАГА<br>КЕЛИШ САБАБЛАРИ .....  | 159-164 |
| <i>Кулибоев Азамат Шоназарович</i><br>ДАВЛАТ ТИББИЁТ ТАШКИЛОТЛАРИДА БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИНГ УСЛУБИЙ<br>АСОСЛАРИ .....  | 165-174 |

*Гадоев Сўҳроб Жумакулович*  
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ КРЕДИТИНИНГ ТАЪМИНОТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ  
ЙЎЛЛАРИ ..... 175-181

*Бекжанов Дилмурод Йўлдашович*  
ЭМПИРИК ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИ АСОСИДА ТУРИСТИК ДЕСТИНАЦИОН  
МЕНЕЖМЕНТ ЖАРАЁНИ ИШТИРОКЧИЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ БАҲОЛАШ ..... 182-193

### **09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ**

*Boydadayev Abdurroхmon Tolibjon o'g'li*  
SHARQ VA G'ARB IRRATSIONAL FALSAFASIDA PANTEISTIK QARASHLARNING QIYOSIY  
TAHLILI (J.RUMIY VA F.NITSSHE FALSAFASI MISOLIDA) ..... 194-200

*Xayridinov Abbosxon Anvarovich*  
GLOBALLASHUV JARAYONIDA MA'NAVIY MA'RIFIY INQIROZLARNING OLDINI OLISHDA  
MARKAZIY OSIYO QADRIYATLARINI YUKSALTIRISH ISTIQBOLLARI ..... 201-205

*Quramboyev Alisher Maxsudovich*  
TEMURIYLAR DAVRIDA IJTIMOY ADOLAT TAMOYILLARINING AMAL QILISHI ..... 206-211

*Jo'rayev Alisher Tulqinboyevich*  
JAMIYAT MILLIY ASOSLARINI MUSTAHKAMLASH – DAVLATNING USTUVOR  
MAQSADI..... 212-217

*Turabova Sevara Kattaqulovna*  
ILMIY VAHS FENOMENINING MANTIQUIY- GNOSEOLOGIK MAQOMINI O'RGANISHDA  
KONSEPTUAL-METODOLOGIK YONDOSHUV ..... 218-224

*Пардаева Марҳабо Давлатовна*  
АЛИШЕР НАВОЙ АСАРЛАРИДА ИЛМГА ОИД ҚАРАШЛАРИНИНГ НАҚШБАНДИЯ  
ҲОЯЛАРИ БИЛАН УЙҒУНЛИГИ ..... 225-233

*Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich*  
NIKON MUNOSABATLARINING TADRIJIY RIVOJLANISHI ..... 234-240

*Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna*  
DINIY MANBALARDA GO'ZALLIK TO'G'RISIDAGI FALSAFIY QARASHLAR ..... 241-246

*Юсупова Феруза Зойировна*  
АХЛОҚИЙ ИДЕАЛ – ЁШЛАР МАЪНАВИЙ ЮКСАЛИШИНING МЕЗОНИ ..... 247-251

*Teshaboev Muhiddin Marifovich*  
IJTIMOIY ADOLATNI TA'MINLASHNING PRINSIPIAL MASALALARI ..... 252-257

## **10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

|  |         |
|--|---------|
| <i>Soatova Nodira Isomitdinovna</i><br>LIRO-EPIK ASARLARDA POETIK FIKRNING BADIY IFODASI .....   | 258-265 |
| <i>Narmuratov Zayniddin Radjabovich</i><br>FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR LINGVOMADANIY BIRLIK SIFATIDA .....                                   | 266-269 |
| <i>Yusupova Omina Muhammadzoir kizi</i><br>DIFFERENT CLASSIFICATION OF FAIRYTALE DISCOURSE IN WORLD AND UZBEK FOLKLORE .....           | 270-276 |
| <i>Бозорова Хулкар Одинакуловна</i><br>РУССКИЙ ЯЗЫК КАК СОСТАВЛЯЮЩАЯ СОДЕРЖАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ ..... | 277-282 |
| <i>Matyakubov Oybek Quralbayevich</i><br>KOGNITIV TILSHUNOSLIKDA «KONSEPT» TUSHUNCHASI .....   | 283-288 |
| <i>Фатуллаева Камола Рахматуллаевна</i><br>ТЕРМИНЛАРНИНГ БЕЛГИЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ТАСНИФИ .....   | 289-293 |
| <i>Karimjonova Shahlo Ravshanjonovna</i><br>O'ZBEK TILIDA KAUZATIV FE'LLARNING YASALISH USULLARI .....                                 | 294-299 |
| <i>Xamzayev Otaxon Erkinovich</i><br>INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KASB-HUNARGA OIDMAQOLLARNING CHOG'ISHTIRMA Tahlili .....               | 300-305 |

## **12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР**

|   |         |
|---|---------|
| <i>Абдурахманова Нодирахон</i><br>ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ СМАРТ-КОНТРАКТОВ В СНГ .....   | 306-310 |
| <i>Сафоева Садокат Мусоевна</i><br>ЭКОСИСТЕМА СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ: ИССЛЕДОВАНИЕ РОЛЕЙ ЗАИНТЕРЕСОВАННЫХ СТОРОН В КОНТЕКСТЕ ГРАЖДАНСКОГО ПРАВА .....                     | 311-320 |
| <i>Абдуллаева Маликабону Эркин қизи</i><br>ХАЛҚ ТАЪЛИМИ СОҲАСИДА КОРРУПЦИЯНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШГА ОИД АЙРИМ ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАСИНИНГ ҚИЁСИЙ ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛИ ..... | 321-330 |

## **13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

|   |  |
|---|--|
| <i>Zoirova Lola Xamidovna</i><br>TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA "INSON ORGANIZMINING RADIATSIYAGA SEZGIRLIGI" MAVZUSINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN |  |
|---|--|



|   |         |
|---|---------|
| FOYDALANISH .....   | 331-336 |
| <i>Ibragimov A'lamjon Amrilloevich</i><br>KOGNITIV SIFATLARNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI (MAKTAB PEDAGOG<br>XODIMLARI MISOLIDA) .....  | 337-343 |
| <i>Madaminov Azimbek Egamberganovich, Xalillayev O'ktam Sobir o'g'li</i><br>YOSH GANDBOLCHI DARVOZABONLARNI O'YIN TEXNIKASIGA O'RGATISH .....   | 344-349 |
| <i>Fayzullaeva Madina Abdumumin kizi</i><br>ANALYSIS OF THE POSITIVE IMPACT OF DIGITAL TECHNOLOGIES ON THE MOTIVATION<br>AND KNOWLEDGE OF STUDENTS IN THE DEVELOPMENT OF THE EDUCATIONAL<br>PROCESS ..... | 350-355 |
| <i>Джумаева Хулкархан Мухаммаджоновна</i><br>ВНУТРЕННИЕ УГРОЗЫ, НЕГАТИВНО ВЛИЯЮЩИЕ НА ДУХОВНОСТЬ СТУДЕНТОВ..  | 356-361 |
| <i>Islomova Madina Asqarovna</i><br>INTEGRATSIYALASHGAN SUN'IY INTELLEKT TOMONIDAN YARATILGAN CHATGPT BOT<br>YORDAMIDA NEMIS TILI O'QITISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH .....                             | 362-368 |
| <i>Raxmatova Mexrinov Majitovna</i><br>YOSHLAR MA'NAVIY SALOHİYATINI O'RGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK<br>ASOSLARI .....  | 369-373 |
| <i>Абдукаюмова Наргиза Райимовна</i><br>ЮҚОРИ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ МАДАНИЙ-ИНТЕЛЛЕКТУАЛ<br>РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ДИДАКТИК ШАРТЛАРИ .....   | 374-384 |
| <i>Norboyev Farxod Chorshanbiyevich</i><br>KREATIVLIK VA INNOVATSIYA BORASIDA ZAMONAVIY NAZARIYALAR .....   | 385-390 |
| <i>Borasheva Aybolgan</i><br>EXPLORING JAMES MCCROSKEY'S RESEARCH ON WILLINGNESS TO COMMUNICATE IN L1<br>CONTEXTS: IMPLICATIONS FOR LANGUAGE TEACHING AND LEARNING .....                                  | 391-398 |
| <i>Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevna</i><br>KOGNITIV TADQIQOTLARNING FANLARARO TUSHUNCHA SIFATIDAGI MOHIYATI VA<br>MANTIQUIY TAHLILI .....   | 399-409 |
| <i>Boboraximov Sanjar Malikjanovich</i><br>MAKTABDA O'QUVCHILARNI JISMONIY TARBIYALASHNING ZARURATI VA UNGA<br>QO'YILADIGAN TALABLAR .....  | 410-414 |
| <i>Salimova Shahlo Sayfulloyevna</i><br>XAVFSIZ TA'LIM MUHITI MONITORINGINING AHAMIYATI .....   | 415-421 |

|   |         |
|---|---------|
| <i>Sayfiddinova Jamila Ziyodulla qizi</i><br>METHODOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF LOGICAL REASONING IN PRIMARY SCHOOL<br>PUPILS .....   | 422-427 |
| <i>Xamroyev Samijon Salimovich</i><br>SPORT TO‘GARAKLARI ORQALI TALABALARNING JISMONIY MADANIYATINI<br>RIVOJLANTIRISH KOMPONENTLARI .....   | 428-433 |
| <i>Kattaeva Feruza Shakirovna</i><br>DEVELOPING STUDENTS SOCIO-CULTURAL COMPETENCE BY USING SOCIO CULTURAL<br>DISCOURSE ANALYSIS METHOD .....   | 434-441 |
| <i>G‘ofurov Azizbek Umarjonovich</i><br>BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA FANI O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASH TIZIMINI<br>TAKOMILLASHTIRISH .....  | 442-447 |
| <i>Abduraximova Umida Shuxratovna</i><br>BO‘LAJAK TARJIMONLARNING LINGVOMADANIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI<br>RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI .....  | 448-454 |
| <i>Obidova Gulmira Kuzibaevna</i><br>INGLIZ TILINI O‘RGANISH JARAYONIDA TEXNIKA TA‘LIM YO‘NALISHI TALABALARIDA<br>EKOLOGIK MADANIYAT ASOSLARINI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK<br>TEKNOLOGIYALAR VA INTERAKTIV METODLAR ..... | 455-460 |
| <i>Axmadaliyeva Xosiyatposhsho Abduxayotovna</i><br>PROFESSINAL TA‘LIM YO‘NALISHLARIDA TAHSIL OLAYOTGAN O‘QUVCHILARNING INGLIZ<br>TILIDAN KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI AUTENTIK MATERIALLAR ORQALI<br>TAKOMILLASHTIRISH .....      | 461-469 |

*09.00.00-Фалсафа фанлари*

**Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna**  
Sharof Rashidov nomidagi  
Samarqand davlat universiteti falsafa  
va milliy g'oya kafedrasida dotsenti

### **DINIY MANBALARDA GO'ZALLIK TO'G'RISIDAGI FALSAFIY QARASHLAR**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada, go'zallik to'g'risida qadimda, zardo'shtiylikda, yahudiylikda, islom ta'limotida keltirilgan ba'zi qarashlar o'rganildi. Shuningdek, go'zallikning o'ziga xos xususiyatlari ko'rsatib berildi.  
**Kalit so'zlar.** Go'zallik, zardo'shtiylik, Avesto, yahudiylik, islom, hadis, inson.

---

**Tursunkulova Shakhnoza Tuychiyevna**  
Associate Professor of the Department of Philosophy  
and National Thought of Samarkand State University  
named after Sharof Rashidov

### **PHILOSOPHICAL VIEWS ON BEAUTY IN RELIGIOUS SOURCES**

**Abstract.** In this article, some ancient, Zoroastrian, jewish and islamic views on beauty have been studied. Specific features of beauty were also shown.  
**Keywords.** Beauty, zoroastrianism, Avesta, judaism, islam, hadith, human.

---

**Турсункулова Шахноза Туйчиевна**  
доцент кафедры философии и национальной мысли  
Самаркандского государственного университета  
имени Шарофа Рашидова

### **ФИЛОСОФСКИЕ ВЗГЛЯДЫ НА КРАСОТУ В РЕЛИГИОЗНЫХ ИСТОЧНИКАХ**

**Аннотация.** В данной статье были изучены некоторые древние, зороастрийские, иудейские и исламские взгляды на красоту. Также были показаны специфические черты красоты.  
**Ключевые слова.** Красота, зороастризм, Авеста, иудаизм, ислам, хадис, человек.

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/SCP1342V3I8Y2023N33>

**Kirish.** Ajdodlarimiz ma'naviy merosini o'rganar ekanmiz, inson haqida, uning go'zalligi haqidagi fikr mulohazalari, qarashlari kishini hayratlantirmay qo'ymaydi. Mutafakkir allomalarning insoniy fazilatlar, insoniy hikmatlar, inson kamolotiga oid go'zal qarashlari biz uchun qadriyatli, ahamiyatlidir. Hozirgi kunda inson ma'naviyati, insonning go'zal axloqi

masalasi juda dolzarb masaladir. Shu bois, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda ajdodlarimiz ma'naviy merosiga murojaat qilish juda o'rinlidir.

Tarixdan inson masalasi tabiiy fanlarda, aniq fanlar hamda ijtimoiy-gumanitar fanlarda ham chuqur o'rganilib kelingan. Ayniqsa, inson go'zalligi masalasi turli ta'limot va qarashlarda qo'rama holatda aks etgan. Masalan, zardo'shtiylikda go'zallikning mohiyati qanday bo'lgan?, Go'zallik tushunchasining turli falsafiy ta'limotlardagi mohiyati qanday mazmunga ega?, Hadis ilmida, islom falsafasida go'zallik qanday tushunilgan? Diniy va dunyoviy go'zallik o'zaro uyg'un tushunchalarmi? degan savollarga mazkur ishimizda javob berishga harakat qildik.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Falsafa va estetik tafakkur tarixida go'zallik haqidagi qarashlar M.F.Ovsyannikov, A.F.Losev, L.S.Kogan, V.A.Shestakov singari rus olimlarining asarlarida, tabiat, jamiyat, inson munosabatlarida go'zallikning namoyon bo'lish xususiyatlariga doir tadqiqotlar, V.P.Krutous, V.F.Martinov, G.Gadamer, T.Adorno, L.Uitmer, G.Strobson, E.Pirs, I.Kon singari g'arb faylasuflari izlanishlarida, o'zbek olimlaridan T.Mahmudov, E.Umarov, M.Abdullayev, N.G'oyibov, M.Hamidova, H.Karimov, U.Qoraboyev, G.Mahmudova, chet el san'atshunoslari Muhammad Toqi Ja'fariy, Daniel Anri Konvay, Genrix Volflin, Rixard Gamon, Robert Skranton va rus nafosatshunoslari A.Ya.Zis, V.V.Vanslovlarning tadqiqotlarida o'rganilgan.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ma'naviy jarayonlar bilan bog'liq go'zallikning aksiologik-falsafiy jihatlari E.Yusupov, Abdulla Sher, H.Shayxova, Q.Honazarov, Q.Nazarov, go'zallikni adabiy-badiiy asarlar, poeziya san'atida namoyon bo'lishiga oid U.Normatov, O.Sharafiddinov, A.Rustamov, M.Qo'shchonov, A.Hayitmetov, I.G'ofurov, O.G'aybullayev, B.Xusanov, O.O'roqova, Sh.Tursunkulova kabi faylasuf, adabiyotshunos olimlarning tadqiqotlarida o'rganilgan.

**Muhokama.** Tertullian qadimgi yunon falsafiy maktablarining barchasini ilohiyot ilmiga ko'ra ikki katta guruhga ajratadi, birinchisi, "nozik-ta'b Aflotun yo'nalishi" deb nomlanadi, ikkinchi yo'nalishni "ahmoqona Epikur yo'nalishi yoki materializm" deb ataydi. Qadimgi g'arb falsafasidayoq diniy va dunyoviylik masalasini aniq ajratishgan, diniylik Xudo bilan bog'liq jarayonni, tajribaviy xulosalarga asoslangan narsa va hodisalar esa dunyoviylik masalalarini tashkil etgan.

Diniy va dunyoviy qarashga ko'ra go'zallikni idrok etish, anglash, kuzatish asosida falsafiy mulohazalar, falsafiy qarashlarni ilgari surish ta'riflash juda qiyin hamda bahs-munozarali jarayondir. Albatta, go'zallikka berilgan ta'riflarda u diniy bo'ladimi, dunyoviy bo'ladimi nisbiy xarakter va umumiy xususiyatlarga ega.

Zardushtiylik ta'limotining Avesto kitobi qadimgi tariximiz to'g'risidagi noyob ma'naviy yodgorlik sifatida, o'z majmuasida go'zallik kategoriyasini sinkretik tarzda namoyon etgan. Avestoda "go'zallik" tushunchasi borliqning barcha sohalarini qamrab oladi. Ular "rohatbaxsh", "buyuk", "serhasham" va "porloq", "ko'zni qamashtiradigan" deb tasvirlangan. Avestoning har bir qismida zardushtiylik estetikasining dualistik jo'shqinligi aks etadi. Insondagi, tabiatdagi, o'simliklardagi, xatti-harakatlardagi, jamiyatdagi go'zallik Ahura Mazda ezguligining namoyon bo'lishi va g'alabasi sifatida ifoda etiladi. Ezgulik qonuni cheklangan yoki buzilgan joylarda go'zallikni, ezgulikni, hayot uchun zaruriyni his etish zaiflashadi.[1;279] Avestoda Go'zallik, Hikmat va Ezgulik timsoli, avvalo, Ahura Mazdaning o'zi bo'lgan:

"Ey, Zardusht! Ey, solih amalli!  
Mendan so'ra! Mendan ista!

Men barcha yaralmishlardan yaxshiroq bo'lgan yaratguvchiman. Men hammadan ham donishmandroqman. Har nechuk muammo va jumboqlarni hal qilishga qodir zotman!

Mendan so'ra. Mendan ista – Senga shu yaxshiroqdir. Senga bu shodlik bag'ishlaguvchidir" (18- Fargard).[2;161]

Asarda go'zallik tushunchasiga mifologik, ontologik, gnoseologik nuqtai nazardan ta'riflar berilgan, go'zallik ham hodisa, ham sifat tarzida turli syujetlar orqali ifodalangan. Kim?, Nima?, Qanday?, go'zal bo'lish variantlari taqdim etilgan. Masalan, suv va hosildorlik ilohi Amudaryo ma'budasi Ardivisura-Anaxitaning go'zal ayol timsoli ham Taylor tasnifiga to'g'ri kelgan holda, yosh, go'zal, ayol, boqiy, nurafshon sifatlarda "Parivash", "sarvqomat va shamshodvash", "kamarbasta va shoista", "shafqatpesha" qilib tasvirlangan.[2;282] Anaxitaning bu tasviri go'zal ayol timsolida go'zallik va ulug'vorlikning boy, rang-barang estetik in'ikosini ko'rsatadi.

Avestoda "go'zallik" tushunchasining mohiyati quyidagi epitelar orqali ochiladi: "So'rovchidir", "Matlub", "Haqiqat", "Barcha ezgulik", "Aql erur", "Talimotman Men", "Men Muallimman", "Avliyodirman", "Muqaddasman", "Qudratlidirman", "Yovuz emasman", "Tolibdirman", "Hisobchi", "Ko'rguvchi", "Asraguvchi", "Yaratguvchi", "Bilguvchi", "Pusht-Pano", "Muqtadir", "Xalloq", "Marhamat", "Shafqatpesha", "Xayrkor", "Buzrukvor", "Hukmdor", "Najotbaxsh", "Xiradmand", "Donishmand", "Olislarni ko'rguvchi", Oliy Haqiqat Axura Mazdaning xususiyatlarini ifodalovchi bu "go'zallik" tushunchasi "Bu ismlar asrab qolar minglab erandek".

Aksincha "xunuklik" tushunchasi quyidagi so'zlar bilan ifodalanadi: "tuban", "g'azabkor", "qotil", "kazzob", "fitnachi", "palid", "yovuz", "jirkanch", "bag'ritosh", "halokatli", "zarar keltiruvchi", "harom qilingan", "qo'rqinchli", "vahshiy", "shafqatsiz", "makkor", "qabih", "yolg'ondakam", "g'amgin" va h.k.

Go'zallik masalasi, go'zallikka munosabat yahudiylik, xristianlik, islom va butparastlikda ham mavjud. Xususan, yahudiylikda Xudo (Oliy aql) go'zallik timsoli hisoblanadi, u odamlarga sevgi-muhabbat, go'zallik, baxt-saodat beruvchi, yaratuvchi ota hisoblanadi.

Yahudiylik madaniyatida inson Xudo yaratgan eng oliy qadriyatdir, uning asosiy maqsadi ham yagonadir: insonning moddiy va ma'naviy olamini yuksaltirishdir. Go'zallik tushunchasi yahudiylikda shundan iboratki, ularda 10 ta ilohiy fazilatlardan biri bo'lgan tipharet tushuniladi. 9 ta qolgan ilohiy tushunchalari mana shu 1 ta ilohiy so'z bilan o'zaro aloqador va bog'liqdir. Dinga ko'ra, go'zallik bu "Tavrot" kitobining yer yuzi, insonlar uchun berilgan go'zalliklar majmuasi, sovg'asi hamda Xudoning sevgisini bildiradi.

Yahudiylikka ko'ra, jamiki yaratilgan go'zal narsalar, go'zal so'zlashuv, go'zal insonlarning barchasi ularda ilohiylikning, Xudoning borligi bilan go'zaldir.

Kimki inson qonini to'ksa,

Uning qonini ham inson to'kar.

Zero, inson zotini Men, Xudo,

Yaratganman O'z suratimda, -deb yozilgan. [3;15]

Yahudiylikda, ko'zni qamashtiradigan go'zal ayollar, qizlar (Sara, Ester) va go'zal erkaklar (Shoh Dovud, Yusuf, Absalom va bq.) haqida ham so'z boradi. Masalan, "Butun Isroilda Absalom kabi chiroyli, kelishgan odam yo'q edi. U boshdan-tirnog'igacha benuqson edi. Sochini ko'tarib yurish og'irlik qilgani uchun har yil oldirardi. Oldirgan sochini tortib ko'rganda, sochining og'irligi shohlikdagi o'lchov bo'yicha besh yuz misqol chiqardi. Absalomning uch o'g'li

va Tamara degan go'zal bir qizi bor edi", deb Dovudning o'g'li Absalomning go'zalligi e'tirof etilgan.[3.5]

Go'zallik insonga xudo tomonidan berilsa-da, birinchidan, go'zallik insonning tafakkurini tiniqlashtiradi, Xudoga bo'lgan sevgi-muhabbatni kuchaytiradi, vizual go'zallik inson ma'naviy olamining yuksalishi uchun ta'sir ko'rsatadi, o'z-o'zini tashkillashtiradi deyiladi, ikkinchidan esa, go'zallik insonning qalbida ilohiy va muqaddas narsalarni doimiy saqlanishini ta'minlab beradi. Hatto ular yozma qonunlarni chiroyli yozilishiga, bezak berilishiga ham alohida e'tibor qaratadi, bunday go'zallik qonunlarga, amrlarga qiymat berib, ta'sir o'tkazishni ko'chaytirib, samaradorligini ko'taradi, deb bilishgan.

Muqaddas kitobda Ibrom " — Sen juda ham go'zal ayolsan. Misrliklar seni ko'rganlarida: "Manavi ayol uning xotini", deb aytishadi. Meni o'ldirib, seni tirik qoldirishadi. Sen, uning singlisiman, deb aytgin, toki sen tufayli Misrliklar menga yaxshi munosabatda bo'lsinlar, jonimga rahm qilsinlar.

Ibrom Misrga kirib kelganda, Sorayning go'zalligi hammaning og'zida duv-duv gap bo'ldi. Saroy a'yonlari ham Sorayni ko'rishgach, uni fir'avnga rosa maqtashdi. Shunday qilib, Sorayni fir'avnning saroyiga olib kelishdi.

Fir'avn Soray tufayli Ibromga ham ko'p muruvvat qildi: mol-qo'y, eshaklar, qul va cho'rilar, tuyalar in'om qildi. Lekin fir'avn Sorayni o'z haramiga olmoqchi bo'lgani uchun, Egamiz fir'avn xonadoniga dahshatli o'lat kasalligini yubordi. Fir'avn Ibromni chaqirtirib kelib, unga dedi: — Bu nima qilganing? Nima qilib qo'yding meni? Nimaga Soray xotining ekanini menga aytmading? Nimaga, u mening singlim, deb aytding? Gapingga ishonib, uni o'zimga xotin qilib olmoqchi bo'ldim-a! Mana xotining, ol-da, ko'zimdan yo'qol!

Fir'avn o'z odamlariga farmon bergan edi, ular Ibromni xotini, hamma odamlari va mol-mulki bilan birga yurtdan chiqarib yubordilar." [3;15]

Ibrom Sorayning go'zalligi ularni xavfdan saqlab qolishini bilgan.

Kitobda olam, tabiat go'zalliklari to'g'risida ham ma'lumotlar berilgan. Masalan, "Jannat" so'zining ma'nosi "go'zal bog'" degan ma'noni bildirgan. Ya'ni, "Yangi Ahd"da jannat deb solihlar o'lgandan keyin boradigan joyga ishora qilingan. O'sha bog'da solihlar Hayot daraxti mevasidan yeyishga musharraf bo'ladilar. Jannat so'zi yana arshi a'loga nisbatan ham ishlatilgan.[3;8]

Yahudiylikda go'zallikka munosabat albatta diniydir, ammo unda dunyoviylikning ustuvorligini kuzatamiz, aynan tabiat, jamiyat, adolat, insonlarning go'zalligi xususidagi qarashlar bor.

Islom ta'limotida go'zallik qanday mazmun kasb etgan? Islomda insonlar o'zaro tinchlik-hamjihatlikda yashashga, adolatparvar, haqiqatgo'y bo'lishga chaqirilgan. Insonlar millati, irqi va nasabidan qat'iy nazar Alloh oldida teng ekanliklarini ta'kidlanib, bir-birlarini kamsitish, bir-birlariga zulm qilishdan qaytarilgan. [4;178]

Imom Buxoriy hadislarida Allohning go'zalligi madh etiladi, uning jamoli, tarovati, ismlari umumiy qilib olganda, islom dini va hadislarda Alloh go'zal deb ta'riflanadi. Hadislarda shunday deyilgan: "Ollah taborak va taoloning "Ollah deb da'vat qilurmisen yokim ar-Rahmon deb da'vat qilurmisen, farqi yo'qdir, uning barcha ismlari go'zaldir".[5;321] Inson go'zalligi to'g'risidagi hadislarda, yarmi go'zal, yarmi xunuk odamlar xususida, ularning yaxshi amallari yomon amallari bilan qorishiq ekanligi to'g'risida yozilgan. Hadislarda kitob va uni qiroat qilishning go'zalligi, ayollarning tashqi va ichki go'zalligi xususida, kiyim-kechaklar, uy-joylar,

muomala, so'zlashuv madaniyati hamda ijtimoiy-madaniy munosabatlarning go'zalligi masalalari ifodalangan.

Islom ta'limotida "Alloh go'zal"ligi, Payg'ambarning go'zalligi e'tirof etiladi, "Rasululloh sallallohu alayhi va sallam odamlarning eng yuzi chiroylisi va eng xulqi go'zali erdilar. Buylari boshqalardan farq qiladigan darajada novcha ham, pakana ham ermas erdi, deyilgan.[5;347] "Mo'minlarning dastlabki guruhi yuzlari to'lin oy monand balqigan holda jannatga kirib keladilar, ularning bosgan izlaridan samodagi eng yorug' yulduz shu'lasini kabi bir yog'du taralib turadi. Endi ular jannatda na peshob va na hojat qiladilar va na burgalardan tozalanadilar va na burun qoqadilar. Ularning taroqlari oltindan bo'lib, terlaridan mushk hidi anqib turadi. Tutatqidonlari tutatqisi ersa xushbuy ud yog'ochidan bo'lib, xotinlari go'zalligi ko'zni hayratga soladirgan hurlar bo'ladi.

Ular barchalari yaqdil bo'lishib, buylari oltmish ziro' (1 ziro' — 0,75 sm) bo'lmish otalari Odam alayhissalom kabi go'zal qiyofada bo'ladilar".[5.288]

Muqaddas kitob Qur'oni Karimda "Alloh go'zal va u go'zallikni sevadi", deyiladi. Islomning estetik nuqtayi nazari go'zallikka oshno bo'lmoqdir. Alloh go'zal ekan, u yaratgan odam ham, u bunyod qilgan olam ham, bandalarga hadya etgan noz-ne'matlari ham go'zaldir. Ibrohim Haqqiy aytadi: "Mavlo, ko'raylik, naylar, naylarsa go'zal aylar. Shunga muvofiq, Allohning ism-sifatlarini vasf etuvchi so'zlarimiz, uning qudratini tamsil etuvchi binolarimiz, me'morlik obidalarimiz, qo'yingki, tangri irodasi, ism-sifati bilan bog'liq bu olamda nimaiki narsa bo'lsa, hammasi go'zal bo'lishi kerak. Arab imlosi, g'azal, bitiklar, naqshlar, me'moriy obidalar, tasviriy san'atning islamiy-tilimiy turlari eshitish va ko'rish a'zolarimiz orqali ruhimizga hissiy quvonch olib keladi. Islom madaniyati ijod dasturida fikr va narsalarning shakl yaxlitligi ramziy-tilimiy mazmun qobig'iga o'ralgan. Naqsh, chodraga o'ralgan ayolga o'xshaydi. Naqsh — xaqqoniyatni qo'l bilan ushlab ko'rish emas, go'zallikning mohiyatini anglash, shu go'zallikni dilda tasdiqlash, chodra ortidagi holatga o'zni tayyorlash va unga kirib borish timsolidir...".[6;54]

Turli diniy qarashlar, diniy ta'limotlarda go'zallik tushunchasi o'ziga xos alohidaligi bilan bir vaqtda, umumiy bo'lgan yagona ilohiy go'zallik konsepsiyasini e'tirof etadi. Ko'p tarmoqliligi bilan ajralib turgan, go'zallikning diniy mohiyati, mazmunan go'zallikning dunyoviy ahamiyatini, insonning jismoniy va ma'naviy go'zalligi orqali tushuntiradi. Go'zallik tushunchasini kimdir insonning tashqi go'zalligi bilan bog'lab tushuntirib bersa, kimdir insonning ichki ma'naviy olami bilan bog'laydi, yana kimdir olam, tabiatni go'zalligini tarannum etadi. Dinda asosiy markaziy nuqtada Allohning go'zalligi e'tirof etiladi. Jamiki yaratilgan narsa va hodisalar ikkilamchi go'zallik bo'lib hisoblanadi.

**Natija.** Inson paydo bo'libdiki, go'zallik muammosi bor. Oddiy insonlardan tortib, tafakkurli faylasuflar ham go'zallik to'g'risida fikr yuritadilar. Bir tomonda faylasuflar go'zallik to'g'risida xilma-xil nazariyalar yaratgan, bir tomonda san'atkorlar go'zallikni kuylashadi, yana bir tomondan, oddiy xalq o'z atrofini insoniylashtirgan sari inson va hayot uchun zarur va foydali narsalar go'zaldir deb kelishadi. Insonlar nazdida odamlarning tinch-osoyishta hayot kechirishi, baxtiyor turmush tarzi va sog'lik-salomatligi go'zallik hisoblanadi.

Qadimgi misrliklardan tortib N.G. Chernishevskiygacha "Go'zallik-bu hayotdir" degan tushuncha hukmron edi. Yunonlar, ayniqsa, pifagorchilar go'zallik asosini garmoniyadan qidirdilar, konkat-bu tovushlar uyg'unligini ifodalovchi orkestr degan tasavvurga ega edilar. Go'zallik haqida shunchalik ko'p nazariyalar, qarashlar va ta'limotlar mavjudki, ularning har

birida go'zallikdek nihoyatda murakkab va umumiy tushunchaning qaysidir alohida bir tomoni, belgisi va ahamiyati qayd etiladi.[7;128]

Inson uchun kerakli bo'lgan barcha narsa va predmetlar go'zal bo'lib, mazkur qarash Suqrotndan boshlab XX asr estetikasidagi juda ko'p oqimlarda davom ettirildi. Uning ijobiy va salbiy tomonlari chuqur o'rganilgan. Hayotiy kuzatishlar, inson tajribalari shuni ko'rsatdiki, barcha go'zal narsalar insonga foydali bo'lmaydi va foydali bo'lgan hamma narsalar go'zal bo'lmasligi mumkin.

**Xulosa.** Inson birdaniga va tayyor holda go'zallik va xunuklik degan tasavvur bilan tug'ulmagan. Tabiat va jamiyatdagi ayrim va juz'iy go'zallik namunalari inson ongidagi go'zallikning mantiqiy takrori va barqarorligi uchun asos bo'lgan. Insonda shakllangan dunyoqarash turlariga qarab go'zallik ham o'z mohiyatiga ega bo'lib borgan (mifologik, diniy, dunyoviy va bq.).

Go'zallik-narsa va hodisalarning umuminsoniy milliy qadriyat sifatida belgilovchi ijtimoiy, ijobiy va ijodiy tushunchadir. Jonsiz narsalarning ma'naviylashuvi ularning go'zallik olamiga kirganidan dalolat beradi. Tabiat, jamiyat, san'at va inson o'rtasidagi ma'naviy birlikdan hosil bo'ladigan go'zallik tushunchasi pirovardida inson erkinligining, ehtiyojining darajasini ham belgilaydi.

#### Адабиётлар/Литература/References:

1. Mahmudova G. Avestoning falsafiy mohiyati. T.: Noshir. 2015. – 279 bet.
2. Avesto. Asqar Mahkam tarjimasini. T.: Sharq, 2001. 161-bet.
3. Muqaddas kitob. T.: Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 102-bet. (Mazkur nashr Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti tomonidan O'zbekiston Bibliya jamiyati bilan hamkorlikda tayyorlangan.). [www.ibt.org.ru](http://www.ibt.org.ru) [ibt\\_inform@ibt.org.ru](mailto:ibt_inform@ibt.org.ru)
4. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar va atamalar (qisqacha izohli tajribaviy lug'at), T.: Yangi asr avlodi, 2002. 178-bet.
5. Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-jome' as-sahih (2-jild). T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1997. 321-bet.
6. G'afur G'ulom. Ibtidodagi ahd. Tafakkur jurnali. 1994. №1. 54-bet.
7. Mahmudova G. va boshqalar. O'zbekistonda islohotlar jarayonini tahlil etish va amalga oshirishning konseptual-falsafiy metodologiyasi. T.: 2020. NOSHIR. 127-128-betlar.



# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 8 (3)-2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).